

"MING BIR KECHA" ASARINING SEHRLI-FANTASTIK HIKOYATLARIDA BADIY MAHORAT TADQIQI

Astanova Gulnora Aminovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası

professori, f.f.d.,

E-mail: guli4803@mail.ru tel.982744803

Annotatsiya: "Ming bir kecha"— Sharq adabiyotining o'ziga xos, betakror asari bo'lib, unda o'ziga xos sehrli-fantastik hikoyalar yig'indisi taqdim etilgan. Ushbu asar o'zining boy va rang-barang badiiy mahorati bilan ajralib turadi, unda sehr, ajdarlar, jinlar, afsonalar va sirli voqealar orqali insoniyatning eng chuqur ehtiyojlari va orzulari aks ettirilgan. Bu hikoyalar o'zining an'anaviy afsonaviy xususiyatlari, badiiy ifoda vositalari va fantastik obrazlar bilan boyitilgan bo'lib, adabiyotshunoslikda o'ziga xos tadqiqot mavzusini tashkil etadi.

Mazkur maqola "Ming bir kecha" asarining aynan sehrli-fantastik hikoyalarida badiiy mahorat masalasi tadqiqi ochiqdanadi.

Kalit so'zlar: "Ming bir kecha", hikoyat, badiyat, sehr, fantastika, adabiyot, xalq, afsona.

Kirish. Sehrli-fantastik hikoyalar janri o'zining noyob badiiy mahorati bilan ajralib turadi, chunki ular hayol va real dunyo o'rtasida o'ziga xos, ko'pincha tasavvurlarni hayotga tatbiq qilish orqali o'z o'rnini topadi. "Ming bir kecha" asarining sehrli-fantastik hikoyalaridagi badiiy mahoratni tahlil qilish, asar muallifi tomonidan til va poetikaning qanday qo'llanilganini, asar dunyosining qanday tasvirlanganini, hamda undagi fantastik elementlarning qanday badiiy funksiyalarni bajarishini ochib beradi.

Asosiy qism. Ma'lumki, "Ming bir kecha" asaridan o'rin olgan sehrli - fantastik ertaklar jozibasi mo'jizaviy safarlar, hayratomuz voqealar aks etgan lavhalar, aql bovar qilmaydigan jodu va afsunlar tasvirida o'z ifodasini topadi. Ulardagi ekstremal tasvirlarni asarni ijro qilish davomida ertakchining mahorat darajasi deb qarash mumkin bo'ladi. "Qahramonning notabiiy jasorati sehrli ertak asosini tashkil etadi,"- deydi ertakshunos olim E.A.Tudorovskaya. Sehrli ertakning mohiyatini belgilaydigan fikr "Ming bir kecha"ning mohir va iste'dodli roviysi o'zi eshitgan va endilikda so'zlab bermoqchi bo'lgan ertagiga boshqalarga nisbatan o'ta fantaziyasi kuchliligi bilan ijodiy yangiliklar qo'shishi sabab ham e'tiborga molik. Bunday holat esa, ertak so'zlovchini ham, eshituvchi jamoani ham turmush tashvishlaridan mushkul holatga tushgan bir paytda ma'lum muddat ko'proq sehrli-fantastik ertaklar yordamida ovunish ishtiyoqining balandligi bilan izohlanadi. Bu kabi ertaklarni so'zlash yoki eshitish ularga iroda, kelajakka ishonch bag'ishlagan.

Y.I.Pomirantseva ertakni shunday asoslaydi: "Yrtakning xarakterli belgisi uning fantastikasidir. Bu xossa badiiy uydirmaning ertakdagi o'zni, funktsiyasi, sifati, daraja miqdori turli xil bo'lsa hamki, janrning asosiy belgisi hisoblanadi". K.Imomov bu fikrga

qarshi: "Fantastika maishiy ertaklarga xos belgi emas, u faqat sehrli ertaklarda etakchi, xolos", - deydi. "Ming bir kecha" asarida ham xalq falsafasi bilan yo`g`rilgan sehrli-fantastik hikoyatlar asarning kattagina qismini tashkil etadi. Undagi sehrli ertaklar o`ziga xos obrazlar tizimiga ega. Bular shum kampir, jodugar, sehrgar, pari, malika va hokazolar. Bunday hikoyatlar qatoridan o`rin olgan "Ohuli chol", "Xachirli chol", "Sehrlangan yigit", "Podsho Badrbosim va malika Javhara", "Hosib va ilonlar malikasi" kabi hikoyatlarni misol keltirishimiz va buni yana davom ettirishimiz ham mumkin.

K.Imomov ertaklar konflikti haqida fikr yuritarkan, deydi: "Ikkinchisi sehrli ertaklarga xos bo`lib, konfliktning bu xili ijtimoiy maishiy ma`no kasb etadi. U asosan aka-uka, opa-singil, o`gay ona, o`gay qiz o`rtasida tashkil topib, sarguzashtga yo`l ochadi. Konflikt ma`naviy tortishuv jarayonida rivojlanib, g`ayritabiiy predmet, sehr-jodu vositasida echiladi..." Haqiqatda, asardagi "Ohuli chol" hikoyatida yoshligida amakisining qiziga uylanib, so`ng yana boshqa qizga uylangan cholning jinga aytib berganlariga ahamiyat beramiz:

"...Amakimning qizi... men ketgach, sehr qilib, o`g`limni buzoq va onasini sigir suratiga kirgizib, ikkovini podaga qo`shib yuboribdi..."

"Xachirli chol hikoyati" ga diqqat qilamiz. Chol jinga safarda yurib, bir kun uyiga kelganida xotinini bir qora qul bilan ko`rganini, xotini erini ko`rib, suvga bir nimalar o`qib, uning ustiga sepganini, shundan so`ng u it suratiga kirganini, uyidan chiqib bir qassob ketidan uning uyiga borganini, qassobning qizi ham sehr bilan shug`ullanishi tufayli buni it emas odam ekanligini sezib, qayta afsun bilan o`z holiga keltirganini, xotinini ham bu qilmishi uchun qizning sehri bilan xachirga aylantirib qo`yganini so`zlab beradi.

"Sehrli ertaklar o`ziga xos murakab kompozitsiya bilan ajralib turadi. Bu xil ertaklarda tugun fantastikaga asoslanadi, talqini xayoliy, notabiiy hodisalar atrofida tashkil topadi," deb yozadi K.Imomov o`z kitobida. Shunga ko`ra yuqorida keltirilgan lavhalar K.Imomov fikriga to`la mos kelishini kuzatish mumkin. "Ohuli chol" va "Xachirli chol" hikoyatidagi sehrgarlik hodisasida notabiiylik mavjud. Ikkala cholning hikoyati nihoyasida qabih ishning oxiri "birovga choh qazisang, o`zing yiqilasan" qabilida tugaydi.

Asardagi "Sehrlangan yigit" hikoyatini olaylik. Unda xotining sehri tufayli yarmi toshga aylantirilgan bir shahar shahzodasi boshidan kechirgan voqealari bayon etiladi. Bevafo ayolning kirdikorlari bayon etiladi. Xotining o`ta makkor, shahvatparast va badxulqligidan aziyat chekkan shahzoda ko`pgina ertaklar yakunida bo`lgani kabi hikoyat oxirida sehrdan qutuladi. "...G`alaba adolat va insonparvar, aql, tadbirkor tomonidan yuz beradi. Umuman, bunday obraz orqali o`tmishda yuz bergan axloqsizlik, o`z yoriga vafosizlik, halollik qadriga etmaslik kabi illatlar fosh etiladi.

Sehrli sarguzasht ertak sirasiga kiradigan "Podsho Badrbosim va malika Javhara" hikoyatiga ahamiyat beradigan bo`lsak, unda shahzoda va malikaning sevgi tarixi hikoyat qilinadi. Hikoyat davomida ko`pdan-ko`p sehr-jodu amallari qo`llanadigan xayoliy hodisalar asosiga qurilgan motivlar biri-biriga ulanib boradi. Shahzoda qizga muhabbatini izhor etganida, qiz uni otasining dushmani sifatida qabul qilib, Shahzodani

sehr bilan qushga aylantirib qo'yadi: "Odam suratidan chiqib, qushlarning eng chiroylisi, pati oq, tumshuq va ikki oyog'i qizil qush suratiga kir!" - debdi u. Hikoyatning tuguni shu lavhadan boshlanadi. Badrbosimning og'ir kunlari boshlanib, qo'ldan-qo'lga o'tib, bir podshoga sovg'a qilinadi-yu, uning xotini sehr-jodu sirlaridan xabardor bo'lgani bois shahzoda sehrdan qutuladi. "Sehrli sarguzasht ertaklarda sehrgar, avliyo, xizr, pirlar qahramonga sehr-joduni echish, yo'l ko'rsatish, sirli narsa, hodisalarni yo'qdan bor qilishni o'rgatish, uni uchar ot, shamshir bila ta'minlash vazifasini ado etadilar", - deydi. K.Imomov o'z asarida. Darhaqiqat, Badrbosim sehr-jodu ustasi malika Lob qo'lga tushadi. Uning sehr- jodusidan qutulish yo'llarini bir baqqol shahzodaga o'rgatadi. Hikoyat nihoyasida, Badrbosim kitobxon uchun ko'pdan-ko'p bir-biridan g'aroyib sarguzashtlarni boshidan kechirib, baribir yana malika Javharani o'z nikohiga oladigan qahramon bo'lib qoladi. "Sehrli ertaklar voqealarni aks ettirish mezonlari hodisalarni badiiy umumlashmalarda fantastika qobig'ida yorqinroq tavsiflash, o'ta mubolag'alashtirish bilan belgilanadi". Mazkur hikoyatlarda fantastika qobig'ida voqealar o'ta mubolag'alashtirilganini ko'rishimiz mumkin.

Asarning "Hammol bilan qizlar" hikoyatida ham o'z xojalaridan aziyat chekib, nihoyat ularni sehr bilan jazolagan uch opa-singillar sarguzashti hikoyat qilinadi. Bunda ham ayollarning o'ch olishda sehr ishlarini qo'llashi aks ettirilgan.

Mazkur hikoyatlarda ko'tarilgan masala insonlardagi oliy muhabbat tuyg'usi hamma narsadan ustunligi, sehr-jodu faqat yomonlik uchun xizmat qilib, u kishilar boshiga ko'p kulfatlar yog'dirishi, ayollarni bu xususiyati yomon oqibatlariga olib kelishi uqtiriladi va albatta, bunday ishlarni "Ming bir kecha" SHahrizodasi qoralaydi.

"Ming bir kecha" asaridagi sehrli va fantastik elementlar asar dunyosining ajralmas qismiga aylangan. Sehrli obrazlar, jinlar, afsonaviy mavjudotlar va sirli hodisalar orqali asarda haqiqiylik va fantastika o'rtasida o'ziga xos chegara mavjud. Asardagi bu elementlar ko'pincha ma'naviy yoki ma'rifatga doir ta'limotlar bilan bog'liq bo'lib, o'quvchini nafaqat hayratga soladi, balki ular orqali insoniyatni o'ylashga, orzu qilishga undaydi. Asarda sehrli-fantastik elementlar ko'plab shakllarda va turli holatlarda uchraydi. Mana shunday hikoyalardagi sehr va fantastikaning estetikasiga doir ba'zi misollarni keltiramiz. Jumladan, sehrli mavjudotlar va jinlar. Asarda jinlar, sehrgarlar, afsunoskorlar va boshqa sehrli mavjudotlar ko'pincha haqiqiy dunyo bilan aralashib ketadi. Ular odatda kishilarni aldash yoki ularga yordam berish uchun ajoyib kuchlarga ega bo'lgan mavjudotlar sifatida tasvirlanadi. Misol uchun, "Alouddinning sehrli shamchirog'i" hikoyasidagi sehrli chiroq va jinlar tasvirlanadi, ular odamlarga o'zgaruvchan xohishlariga javob beradi.

Bundan tashqari sehrli buyumlar va kuchlar: Sehrli ob'ektlar, masalan, sehrli chiroqlar, toshlar, halqalar va boshqa buyumlar asarda juda ko'p uchraydi. Bular odatda qahramonlarga o'zgaruvchan kuchlar yoki imkoniyatlar beradi.

Asar voqealarida odatda, odamlar yoki joylar sehrli kuchlar bilan o'zgarib boradi. Ba'zida personajlar sehrli kuchlar yordamida boshqa ko'rinishda bo'lishadi yoki yangi imkoniyatlarga ega bo'lishadi. Masalan, "Sulton va uning uchinchi xotini" hikoyasida o'zgarmas reallik va fantastika o'rtasidagi chegaralar aniq bo'lmaydi.

Ba'zi hikoyalarda o'limdan keyin qaytish yoki sehrli vositalar orqali o'limni yengish ham bor. Masalan, "Shahzoda va akasi" hikoyasida, shahzoda o'limdan qaytadi va fantastik o'zgarishlar va sarguzashtlar davom etadi.

Sehrli yordamchilar qahramonlarga kutilmagan tarzda yordam berib, ularni o'z maqsadlariga erishishda yordam beradilar. Bu element o'zgaruvchan voqealar va kutilmagan hissa qo'shish orqali hikoyaning fantastik atmosferasini yaratadi.

"Ming bir kecha" asaridagi fantastik elementlar nafaqat ajoyib sarguzashtlar, balki ularni haqiqiy dunyo va odamlar bilan o'zaro bog'lash orqali, oddiy kundalik hayotning ichki sehrini ham ko'rsatadi. Sehrli elementlar va ularning bilan bog'liq bo'lgan falsafiy va ma'naviy masalalar asarda o'zining ajoyib tarzi bilan ilgari suriladi. Umuman olganda, "Ming bir kecha" asarida sehr va fantastika estetikasining asosiy tamoyillari qahramonlar o'rtasida mavjud bo'lgan kuchlar, sirli ob'ektlar, vaqt va makonning o'zgaruvchanligi, shuningdek, o'ziga xos sehrli mohiyatlar va g'ayritabiiy voqealarga asoslangan sarguzashtlarni tashkil etadi.

Xulosa. "Ming bir kecha" asaridagi sehrli-fantastik hikoyalar o'zining badiiy mahorati, poetik kuchi, an'anaviy va yangi elementlarni uyg'unlashtirishi bilan ajralib turadi. Asardagi sehr, fantastika va folklor o'zaro bog'liq holda ishlatilib, ularning badiiy funktsiyalari asar dunyosining chuqur va ko'p qatlamli bo'lishiga yordam beradi. Ushbu asarni tadqiq qilish, uning tilini, stilistik va poetik elementlarini o'rganish, nafaqat o'sha davr adabiyotini, balki butun Sharq madaniyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Астанова Г. А. "МИНГ БИР КЕЧА" АСАРИДАГИ АЁЛЛАР ОБРАЗИДА ТАДБИРКОРЛИК ВА ҚАҲРАМОНЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
2. Астанова Г. А. МИСР ҲИКОЯТЛАРИДА ШАРҚОНА МЕНТАЛИТЕТ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2022. – Т. 5. – №. 5.
3. Астанова Г. А. "Минг Бир Кеча" Ва Ўзбек Фольклори //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 27. – С. 66-69.
4. Astanova G. A. A MASTERPIECE OF ARABIAN TALES AND WORLD LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 3. – С. 352-356.
5. Astanova G. A. HISTORICAL TRUTH IN THE IMAGES OF WOMEN IN SHAKHRIZAD STORIES //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 204-207.
6. Астанова Г. А. "Минг Бир Кеча" Ва Ўзбек Фольклори //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 27. – С. 66-69.
7. Померанцева Э.М.Русские сказки. М.: 1963. – С. 4.
8. Имомов К. Ўзбек халқ наصري поэтикаси. – Т.: Фан, 2008. – Б. 104.
9. Минг бир кеча. Араб эртаклари. / С.Муталлибов тарж. – Т.: 1962 .8 ж. Ж.1. – Б. 32.
10. Минг бир кеча. Араб эртаклари. /А.Расулов таржимаси. – Т.: 1965. Ж.7.75.